QASHQADARYO VILOYATI
YAKKABOG‘ TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

181400 Yakkabog‘ shahri, A.Temur ko‘chasi, 74-uy, Faks:(+99875) 58-25-420 t.yakkabog@exat.uz

2022 - yil 13 - may 204-4-68-Q/22 Yakkabog‘ tuman hokimligi

“Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfini oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

2022-yilda Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in kelib chiqishining hamda tabiatga va o‘simlik dunyosiga zarar yetkazilishini oldini olish maqsadida Yakkabog‘ davlat ixtisoslashgan o‘rmon xo‘jaligining 2022 yil –sonli xatini inobatga olib O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999-yil 22-noyabrdagi “Respublika o‘rmonlarini himoya qilish bo‘yicha ayrim meyoriy xujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 506-sonli qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi Xukumatining qarorlari to‘plami, 1999-yil 11-son, 68-modda) hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi fonunining 6-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. 2022-yilning bahor,yoz, kuz fasllarida davlat o‘rmon fondi yerlarida va qo‘shni fermer xo‘jaliklari hamda fuqarolar yig‘inlari xududida joylashgan o‘rmonlarda tamaki maxsulotlari chekish, ov qilish hamda gulxan yoqish qat’iyan man qilinadi.

2.Yakkabog‘ davlat ixtisoslashgan o‘rmon xo‘jaligi bo‘limlarida favqulotdda xolatlarda yong‘inni o‘chirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Yakkabog‘ davlat ixtisoslashgan o‘rmon xo‘jaligi (B.Abrayev) direktori. Qizilsuv,Toshqo‘rg‘on, Qo‘shtol, Cho‘yanli, Langar,Kenguzar o‘rmon bo‘limlari (U.Nazarov, I.Nazarov, A.Qurbonov, A.Toshpo‘latov, S.Toshpo‘latov, I.Shodiyev) boshliqlari, Tatar MFY (T.Berdiyev). “Ishkent” MFY (O‘.Xo‘janov), “Xonaqa” MFY (N.Bozorov), “Daryo” MFY (A.Qudratov), “Kenguzar” MFY (M.Yodgarov)lari raislari yong‘in xavfini oldini olish uchun barcha tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo‘yilsin.

4.Yakkabog‘ davlat ixtisoslashagan o‘rmon xo‘jaligi (B.Abrayev), tuman FVB YOXB (SH.Qobilov), tuman Tibbiyot birlashmasi (S.Jo‘rayev) “O‘ztelekom” AK Yakkabog‘ tuman filiali (A.Raxmatov), Qizilsuv, Toshqo‘rg‘on, Qo‘shtol, Chuyanli, Langar, Kenguzar (U.Nazarov, I.Nazarov, A.Qurbonov, S.Toshpulatov, I.Shodiyev, A.Toshpo‘latov) o‘rmon xo‘jaligi bo‘limlari, “Tatar”, “Ishkent”, “Xonaqa”, “Kenguzar”, “Daryo” (T.Berdiyev,

O‘.Xo‘janov, N,Bozorov, M.Yodgarov X.Qudratov) MFYlari raislari birgalikda, davlat o‘rmon fondida yong‘in sodir bo‘lsa tezda,kechiktirmasdan yong‘inni o‘chirish uchun yetarli odamlarni jalb qilish va ularni asbob-uskunalar,transport vositalari hamda oziq-ovqat bilan ta’minlash va tez tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

5. Yakkabog‘ davlat ixtisoslashagan o‘rmon xo‘jaligi (B.Abrayev), tuman tabiatni muhofaza qilish bo‘limi (Y.Jumayev),”Tatar”, “Ishkent”, “Xonaqa” “Kenguzar”, “Daryo” (T.Berdiyev,O‘.Xo‘janov, N.Bozorov, M.Yodgarov, X.Qudratov) MFYlari raislari birgalikda o‘rmon xo‘jaligi yer fondiga yaqin aholi punktlarida, o‘rmon xo‘jaligi fondi yerlarida yong‘inni oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish hamda o‘rmonchilikka oid qonunlarni buzgan shaxslarga nisbatan tegishli xujjatlarni rasmiylashtirib, tegishli organlarga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

5.Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2021-yil 5-iyundagi “Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfini oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 284-4-68-Q/21–sonli qarori kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

6. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirishi belgilansin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Z.Imomov zimmasiga yuklatilsin.

Yakkabog` tuman hokimi **L.J.ABDULLAYEV**

Yakkabog‘ tuman hokimining
2022 yil 13 maydagi
204-4-68-Q/22-son qaroriga
1-ilova

2021-yilda Yakkabog‘ davlat ixtisoslashgan o‘rmon xo‘jaligining Qizilsuv,Toshqurg‘on, Qo‘shtol, Chuyanli, Langar, Kenguzar o‘rmon bo‘limlarida favqulodd vaziyatlarda yong‘inni o‘chirish

R Y E J A S I

№ Yakkabog‘ tumani	Joylashgan aholi		Yong‘inga qarshi o‘chirish asboblari			O‘rmon bo‘limlarning nomi	Texnikalar soni	Shundan suv tashish mashinasi
	jami	Shundan yong‘in o‘chirishga qatnashadi	bolta	arra	belkurak			
1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**
Tatar MFY	300	200	20	100	80	Qizilsuv Toshqo‘rg‘on	6	1
Ishkent MFY	250	180	10	30	40	Qo‘shtol Chuyanli	5	1
Xonaqa MFY	230	160	15	40	90	Chuyanli	3	1
Daryo MFY	200	150	20	40	60	Langar	4	1
Kenguzar MFY	100	80	10	20	30	Kenguzar	1	1

Yong‘in sodir bo‘lganda kerakli narsalar yuboriladigan joylar	Tibbiy yordam ko‘rsatilishini tashkil etishda javobgar shaxs	Yong‘in bo‘ladigan joylarda aloqani tiklash bo‘yicha javobgar shaxs	O‘rmon bo‘limi boshliqlarining I.F.O	Yong‘inni o‘chirish bo‘yicha javobgar shaxs	Texnika va yong‘in o‘chirish asbob-uskunalarini olish joyi
10	**11**	**12**	**13**	**14**	**15**
Fuqarolar yig‘inlari fermer xo‘jaliklari	Tuman tibbiyot birlashmasi S.Jo‘rayev	Uztelekom yakkabog‘ tuman filiali (A.Raxmatov)	U.Nazarov S.Toshpshlatov A.Qurbonov I.Shodiyev I.Nazarov A.Toshpshlatov	O‘rmon Inspektori H.Nazarov O‘rmonni saqlash va ximoya qilish muxandisi O.Eshtursunov	O‘rmon xo‘jaligi, Mahalla va qishloq fuqarolar yig‘inlari,hamda fermer xo‘jaliklari omborlari